


R.D. DUSMURATOV,
D.M. MAVLYANOVA

JORIY AKTIVLAR: BUXGALTERIYA HISOBI, TAHLILI VA AUDITI





657

D-90


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

R.D.DUSMURATOV, D.M.MAVLYANOVA

**JORIY AKTIVLAR:
BUXGALTERIYA HISOBI,
TAHLILI VA AUDITI**

(Monografiya)



TOSHKENT – 2023

UO'K: 657.6-051
KBK 65.053
J 85

R.D.Dusmurotov, D.M. Mavlyanova. Joriy aktivlar: buxgalteriya hisobi, tahlili va auditi. (Monografiya). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023, 156 bet.

ISBN 978-9910-01-054-5

Mazkur monografiyada ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiyotda tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari, joriy aktivlar hisobi, tahlili va auditi uslubiyotini tashkil etishning nazariy asoslari bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlari va g'oyalari tadqiq etilib, ularning qarashlari va yondashuvlari tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, xorij tajribasini chuqur o'rganish asosida donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida joriy aktivlar hisobi, tahlili va auditini uslubiy jihatlarini takomillashtirish zarurati asoslangan va ilmiy-amaliy jihatlarini yoritilgan.

Jumladan, dargumon qarzlarning muddatiga mutanosib foizlar bo'yicha rezerv shakllantirish asosida moliyaviy hisobot shaffofligi va aniqligini ta'minlash asoslangan; joriy aktivlarning tovar moddiy zaxiralari, sug'urta zaxirasi, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari elementlarini me'yorlashtirish orqali tahliliy baholashni shakllantirish taklif qilingan; foydani maksimallashtirish uchun joriy aktivlar miqdorini belgilash va foydalanish samaradorligini kompleks tahlil qilish metodikasi ishlab chiqilgan; joriy aktivlar auditini o'tkazish modeli ishlab chiqilgan hamda auditning omilli tahlilga asoslangan bosqichi tavsiya etilgan; korxonalar hisob siyosatining ishchi schyotlar rejasi uchun «Qisqa muddatli investitsiyalar» schyoti bo'yicha qo'shimcha schyotlari ishlab chiqilgan; dargumon qarzlari bo'yicha rezerv shakllantirishda xaridor va buyurtmachilar bilan imzolangan shartnomada to'lov muddatiga mutanosib ravishda foiz belgilash tartibi ishlab chiqilgan; joriy aktivlarni samarali boshqarish, optimal miqdorini aniqlash, kompleks tahlil qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar shakllantirilgan; xorijiy tajribasi asosida joriy aktivlar auditini o'tkazishda qo'llaniladigan tahlil ko'rsatkichlari va axborot bazalari shakllantirilgan.

Monografiya oliy o'quv yurtlarining mazkur sohadagi professor-o'qituvchilari, tadqiqotchi, magistrantlari va talabalari uchun mo'ljallangan. Undan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yuritishda rahbarlar va mutaxassislar, auditorlar, buxgalter-iqtisodshilar va boshqa mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy kengashi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya qilingan.

UO'K: 657.6-051
KBK 65.053

Taqrizchilar:

A.N. Turayev – i.f.d.;

N.B. Abdusalomova – i.f.d., prof.

Mazkur monografiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy Kengashining 2023-yil 4-iyuldagi 11-sonli qaroriga asosan chop etildi.

ISBN 978-9910-01-054-5

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023.

KIRISH

Jahonda barcha alohida iqtisodiyot tarmoqlarini birlashtiruvchi asosiy ko'rsatkich yalpi ishki mahsulot hisoblanadi. Jahon bo'yicha «YaIM 2019-yilda o'tgan yilga nisbatan qariyb 2,9 foizga o'sgan»¹. YaIM tarkibida sanoat ishlab chiqarish ulushi katta bo'lgani sababli investitsion hamda, innovatsion siyosat aynan shu tarmoqqa qaratilgan. E'tiborli jihati, jahonda eng yirik kompaniyalar jami aktivlar tarkibida joriy aktivlar salmog'i 35-40 foizni tashkil etgan. Rivojlangan mamlakatlar o'z aylanma mablag'larini foydaga ta'sirini doimiy ravishda nazorat qilib, ularni yuqori ko'rsatkichlarga erishishning muhim omili sifatida qaramoqda. Shu bois, joriy aktivlar hisobini yuritish, hisobotda aks ettirish, ular tahlilini tashkiliy-uslubiy jihatlarini rivojlantirish va auditi uslublarini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish zarurati hozirgi globallashuv jarayonida mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Jahon amaliyotida innovatsion va raqamli iqtisodiyotning rivojlanish sharoitida joriy aktivlar hisobi, tahlili va auditining tashkili-uslubiy jihatlarini rivojlantirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlarda joriy aktivlarni tasniflash, ularni tan olish, baholash, hisobini tashkil etish va yuritish, foydalanuvchilar uchun axborot imkoniyatlarini kengaytirish, ulardan samarali foydalanishda tahlil qilish uslubiyoti hamda auditni amaliy-uslubiy masalalarni rivojlantirish muammolari va joriy aktivlarni hisobga olish xususiyatlari afzalliklarini belgilab berilgan. Biroq, jahonda joriy aktivlarning turlicha talqini, ularni hisobda aks ettirish turli darajada bo'lganligi, tahlil qilish va auditini uslubiy jihatlarini xalqaro standartlar talablari darajasida tashkil etish bilan bog'liq muhim masalalar hozirgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan.

O'zbekistonda ishlab chiqarish korxonalarining jami aktivlar tarkibida joriy aktivlar salmog'i 85-92 foizni tashkil etishi, tarmoqda

¹ <https://www.world industrial production 2019>.

barqaror iqtisodiy holatini saqlab qolishga e'tibor berish muhim ahamiyatga egaligini taqozo etmoqda. «Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida 2019-yilda ishlab chiqarish hajmi 107,5 foiz, iste'mol tovarlari hajmi esa 110, 2 foizga oshgan».² Shu bois, ishlab chiqarish korxonalari joriy aktivlar harakatchanligi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning hisobini tashkil etish, tahlili va auditing uslubiy asoslarini yaratish bugungi kunning muhim masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomada «Iqtisodiyotdagi tizimli o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi joriy yilda 35 foizdan 37 foizga ortishi kutilmoqda. Shu sababli, har bir tuman va shahar sanoatini rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish»³ ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Mazkur vazifalar bajarilishini ta'minlashda joriy aktivlar hisobini xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish, nazorat va tahlilning uslubiyotini rivojlantirish tanlangan tadqiqot mavzusini dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-son «Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida»gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

² <https://www.uzdon.uz>, (openinfo.uz)

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январь куни мамлакатимиз Парламентига Мурожаатномаси. «Халқ сўзи» газетаси, 2020 йил 28 январь.

1 BOB. JORIY AKTIVLAR HISOBI, TAHLILI VA AUDITINING TASHKILIIY USLUBIY ASOSLARI

1.1. Joriy aktivlarning mohiyati, turkumlanishi va ularni boshqarishning asosiy yo‘nalishlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning normal ish faoliyatini joriy aktivlar ta‘minlashi hamda ishlab chiqarish rentabelligi muhim hisoblanadi va uni amalga oshirishda ko‘plab omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Joriy aktivlardan oqilona va samarali foydalanish korxonalar moliyaviy barqarorligini va to‘lov qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Korxonalar o‘z hisob-kitob va to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida to‘liq bajarishi lozim, bu tijorat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Xo‘jalik-moliyaviy faoliyatida joriy aktivlarni samarali boshqarish, ularning zarur va yetarli miqdorda, eng kam sarf-xarajatlar bilan shakllantirish, shuningdek ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu muammoni hal qilish «O‘zdonmahsulot» aksiyadorlik kompaniyasi (AK) korxonalari uchun juda dolzarb hisoblanadi, chunki aktivlarning katta qismini joriy aktivlar tashkil etadi.

Ma‘lumki, korxonaning barsha aktivlari ikkita guruhga ajratiladi: uzoq muddatli aktivlar (fixed assets) va joriy aktivlar (surrent assets).

Insoniyatning ko‘p asrlik tarixi davomida bu aktivlarga nisbatan ko‘plab yondashuvlar to‘planib borgan. Bugungi kunda joriy aktivlardan samarali foydalanish eng muhim muammolardan, chunki aynan ularning miqdori, tarkibi, turkumi, dinamikasi va foydalanish samaradorligi xo‘jalik yurituvchi subyekt maqomiga, uning moliyaviy holatiga, raqobatbardoshligiga, investitsion jozibadorligiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Ilmiy va o‘quv-uslubiy manbalarda “joriy aktivlar” atamasining iqtisodiy mazmunini yoritib berishga turli yondashuvlar mavjud. Bugungi kunda keng tarqalgan yondashuvlar 1.1-jadvalda keltirilgan.

«Joriy aktivlar» atamasini ta'riflashga yondashuvlar⁴

Yondashuv mualliflari	Yondashuv (ta'rif) mazmuni
V. V. Kovalev ⁵	Joriy aktivlar moliyaviy yoki nomoliyaviy xususiyatidan qat'i nazar qisqa muddatli kreditlar va qarzlar ta'minoti sifatida xizmat qiladi. "Joriy aktivlar" tuchunchasini "aylanma mablag'lar", "aylanma kapital" va "mobil aktivlar" tuchunchalari sinonimi deb hisoblaydi.
N. P. Lyubushin ⁶	"Aylanma kapital" "joriy aktivlar" tuchunchasining sinonimi deb hisoblaydi.
I. A. Blank ⁷	Joriy aktivlar korxonaning joriy ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini ta'minlovchi hamda bitta operatsion siklda to'liq sarflanadigan mulkiy qiymatliklar yig'indisi sifatida tasniflaydi.
A. D. Sheremet ⁸	Korxonadan har bir sikl davomida joriy jarayonlarga sarmoyalanadigan (investitsiyalanadigan) mablag'lar joriy aktivlardir deb ta'rif beradi
V.V. Kovalev ⁹	Joriy aktivlar joriy faoliyatni ta'minlash maqsadida ma'lum bir doimiylikda qayta tiklanuvshi, yil yoki bitta ishlab chiqarish tijorat sikli davomida eng kamida bir marotaba aylanadigan, ishlab chiqarish va muomalalar sohasi aylanma mablag'lari ko'rinishidagi korxonalar aktivlaridir.

Shunday qilib, ba'zi olimlar joriy aktivlarni ta'riflashda o'z e'tiborini aylanma kapital va aylanma mablag'lar kabi yaxlit tuchuncha sifatida qaratsa, boshqalari joriy aktivlarning qiymatini baholash hamda ularning bir aylanish siklida qatnashishiga, ushbu kategoriyaning ikkita jihati – moliyaviy va ashyoviy ko'rinishlarini o'rganishga qaratgan.

⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁵ Ковалев В.В., Ковалев Вит. В. Анализ баланса. 4-е изд. М.: Проспект, 2016.

⁶ Любушин Н.П. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия учебное пособие для вузов под ред проф Н. Любушин; Экспресс-метод 2017г. 566 с

⁷ Бланк И.А. Управление активами Файл формата PDF, размером 26,05 МБ, Добавлен пользователем Netman011 10.02.14 03:27. Отредактирован 10.02.14 12:26

⁸ Шерemet А.Д. Комплексный анализ хозяйственной деятельности: Учеб. пособие. — М.: РИОР: ИНФРА-М, 2015.

⁹ Ковалев В. В., Ковалев Вит. В. Корпоративные финансы: Учебник. М.: Проспект, 2018.

Respublikamizda joriy aktivlar tarkibidagi tovar moddiy zaxiralari, pul mablag'lari, debitor qarzlari, kelgusi davr xarajatlari bo'yicha iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, N.R. Raxmonov "Tovar-moddiy zaxiralar iqtisodiy tuchunchasining xalqaro standartda belgilangan qoidalarini, mazmuni, turkumlanishi va uslubiyotini, xorij talablarini o'rganish va mulohaza qilish natijasida ularni ta'minot, ishlab chiqarish va moliyaviy sikliga muvofiq mustaqil hisob – iqtisodiy kategoriya, deb hisoblash zarur"¹⁰ degan fikr bildirgan. Lekin, bu tuchuncha tor ma'noda keltirib o'tilgan, chunki buxgalteriya hisobining xalqaro standarti andozalariga birgina tovar-moddiy zaxiralari emas, balki buxgalteriya balansidagi har bir qismini iqtisodiy kategoriya sifatida ilmiy talqin qilish, o'rganish lozim.

Joriy aktivlar bu hisob (moliya) yilida kamida bir marotaba korxonaning joriy aylanishida qatnashadigan mol-mulklarning qiymati, pul mablag'lari va hisoblashishdagi mablag'laridir. Joriy aktivlar aylanmadagi tovar moddiy boyliklar, hisoblashishdagi mablag'lar, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va pul mablag'larini o'z ichiga oladi.¹¹ Bu aktivlar o'z tabiatiga ko'ra harakatchan bo'lib, to'rtta asosiy element: tovar moddiy zaxiralar, debitorlik qarzlari, qisqa muddatli qarzlari va pul mablag'laridan tashkil topadi.

Bizning fikrimizcha, joriy aktivlarni xo'jalik faoliyatida muhim iqtisodiy kategoriya sifatida o'rganish (ta'riflash) maqsadga muvofiqdir. Chunki, joriy aktivlar bo'limi buxgalteriya balansida ham, schyotlar rejasida ham juda katta o'rin egallaydi, uning tarkibidagi har bir modda muhim iqtisodiy ko'rsatkich sifatida o'rganiladi.

Fikrimizcha, joriy aktivlar deganda, ishlab chiqarish va muomala fondlarini shakllantirish uchun pul ko'rinishida avanslashtiriladigan, doimo bir funksional shakldan boshqa shakl ko'rinishiga o'tadigan qiymat tuchuniladi. Bu orqali mahsulot ishlab chiqarish va sotish

¹⁰ P.H. Raхmonov Товар – моддий захиралар ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. // Автореферат. –Т.: 2010 й.15-б.

¹¹ Финансово-кредитный энциклопедический словарь / Колл. авторов; Под. общ. ред. А.Г. Грязновой. – М.: Финансы и статистика, 2002. -1168с. С. 24-25.

jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi. Joriy aktivlar bu pul mablag'lari ko'rinishidagi 12 oy yoki oddiy operatsion sikl mobaynida shu ko'rinishga keltirilishi mumkin bo'lgan aktivlardir. Operatsion sikl deganda, moddiy boyliklarni ishlab chiqarishga tayyorlash va tovar (mahsulot, xizmat)larni sotishdan olinadigan to'lov muddati o'rtasidagi o'rtacha vaqt birligi tuchuniladi.


Joriy aktivlar ikki funksiyani bajaradi:¹²

1) ishlab chiqarish – aylanma ishlab chiqarish aktivi yangi ishlab chiqarish qiymatini yaratishda qatnashadi;

2) to'lov-hisob kitob-muomala sohasida joriy aktivlar yangi qiymat yaratishda qatnashmasdan (sotish xarajatlaridan tashqari), tayyor mahsulotni pul resurslari ko'rinishiga aylantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Joriy aktivlar nafaqat moddiy, balki pul resurslari, shuningdek, moliya-kredit resurslarini o'z ishiga olganligi sababli ularni samarali boshqarish, moddiy ishlab chiqarish jarayonini va korxonada moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Joriy aktivlar iqtisodiy mazmunining aniqlashtirilgan ta'rifiga ko'ra, ularning aylanish xususiyatlarini taqdim etamiz (1.1-rasm).



1.1-rasm. Joriy aktivlarning aylanishi¹³.

¹² Monografik ma'lumotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹³ Monografik ma'lumotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Aylanish ta'minot (tayyorlov), ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Pul mablag'larining to'liq aylanishi amalga oshiriladigan vaqt birligi ishlab chiqarish tijorat siklining muddatini belgilaydi.

Har qanday tadbirkorlik faoliyati mahsulotlar ishlab chiqarish uchun muayyan miqdordagi resurslarga yo'naltiriladigan pul mablag'laridan boshlanadi. Tayyorlov jarayonida joriy aktivlar pul mablag'lari shaklidan ishlab chiqarish (mehnat predmetlari va vositalari) shakliga o'zgaradi. Ishlab chiqarish jarayonida resurslar mehnat vositalari va ishchi kuchlar ta'sirida tayyor mahsulot ko'rinishiga o'tadi. Sotish jarayonida joriy aktivlar tovar shaklidan yana pul ko'rinishiga ega bo'ladi.

Shu tariqa, joriy aktivlar elementlari xo'jalik muomalalari doimiy oqimining bir qismini tashkil qiladi. Ta'minot jarayoni ishlab chiqarish zaxiralarining oshishiga, ishlab chiqarish tayyor mahsulot miqdorining, realizatsiya esa debitorlik qarzlarning oshishiga, undan keyin kassadagi va hisob-kitob schyotidagi pul mablag'larning oshishiga olib keladi. Korxonaning normal faoliyat ko'rsatishi va uzluksiz aylanmani ta'minlash uchun joriy aktivlar barcha harakat bosqichlarida muntazam ta'minlanishi zarur.

Joriy aktivlar aylanishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- joriy aktivlar tayyorlanayotgan mahsulot tarkibiga moddiy shaklda to'liq kiritiladi;
- joriy aktivlar bir ishlab chiqarish jarayonida to'liq ishlatiladi va ularni har bir ishlab chiqarish siklidan keyin yangidan shakllantirish (tiklash) lozim;
- mahsulot sotilgandan keyin sarflangan joriy aktivlar qiymati qoplanishi lozim va ular yana mahsulot ishlab chiqarish hamda sotish jarayonlariga yo'naltiriladi.

Aktivlar aylanishining yakuniy natijasi nafaqat mablag'larning qoplanishi bo'lib, shu bilan birgalikda qandaydir qo'shimcha qiymat olinishi nazarda tutiladi. Aynan ushbu resurslarning to'liq aylanishi

natijasida olingan mablag'larning ularga sarflangan boshlang'ich miqdori o'rtasidagi ijobiy farqlanish miqdori xo'jalik yurituvchi subyektning foyda manbasi hisoblanadi. Ijobiy moliyaviy natija (foйда) esa barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining motivatsiya belgisi hisoblanib, bozor iqtisodiyotida rivojlanishining asosiy manbasi hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, joriy aktivlar elementlarining aylanishi turli muddatlarda amalga oshishi va turli likvidlilik darajasi bilan farq qiladi. Ularning harakatlanish xususiyatlarini tahlil qilish natijasida joriy aktivlarni alohida guruhlariga ajratib tasniflash lozim. Faqatgina ushbu turli guruh xususiyatlarini hisobga olish, joriy aktivlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tarkibini oqilona rejalashtirish imkoniyatini yaratadi.

Joriy aktivlarni turli guruhlariga ajratib tasniflash ularni rejalashtirish, nazorat va tahlil qilishning muhim sharti hisoblanadi.

Joriy aktivlarning turli belgilari va aniqlik darajasi bilan farq qiluvchi ko'plab tasniflari mavjud. Ba'zi iqtisodchilar^{14,15} joriy aktivlarni quyidagi belgilari bilan farqlashadi:

- korxonada faoliyatida qatnashish tavsifiga ko'ra: joriy ishlab chiqarish fondlari va muomala fondlari;
- rejalashtirish xususiyatlari bo'yicha: me'yorlashtiriladigan va me'yorlashtirilmaydigan joriy aktivlar.

Fikrimizcha, bunday tasniflashlar to'liq emas. Masalan, I.A.Blank¹⁶ va N.P.Lyubushin¹⁷ joriy aktivlar turkumlanishini quyidagicha to'ldirishgan:

¹⁴ Хорин А. Н., Бровкин А. В. Цели и особенности анализа интегрированной отчетности, корпоративного капитала и комплексной результативности бизнес – процессов // *Креативная экономика*. — 2018. — Т. 12, № 4. — С. 499–512.

¹⁵ Четыркин Е.Н. Статистические методы прогнозирования. - М.: Статистика, 1975. - 184 с.

¹⁶ Бланк И.А. Управление использованием капитала. - Киев: «Ника- центр»: «Эльга», 2000, 650 с.

¹⁷ Любушин Н.П. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2000, 359с.

- moddiy-ashyoviy mazmuni bo'yicha joriy aktivlar asosiy va qo'shimcha materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari va boshqalarga bo'linadi;
- foydalanish davri bo'yicha: doimiy va o'zgaruvchan joriy aktivlar;
- shakllantirish manbasiga ko'ra: o'z mablag'lari va qarzga olingan mablag'lar hisobidan shakllantiriladigan joriy aktivlar.

O.V.Efimova¹⁸, yuqorida ko'rsatilgan tasniflash belgilaridan tashqari, joriy aktivlarni mutlaq likvidli, tezkor likvidli va sekin sotiladigan joriy aktivlarga ajratilishini ko'rsatib o'tgan.

Joriy aktivlarning guruhlash belgilarini umumlashtirilgan holda, V.G.Artemenko va M.V.Bellendir¹⁹ ushbu tasniflashni qo'yilmaning risk darajasi bo'yicha guruhlash – minimal, kichik, o'rtacha va yuqori riskli joriy (aylanma) aktivlar bilan to'ldirishni tavsiya qilishgan.

Fikrimizcha, joriy aktivlarni buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan, chet el tajribasida qo'llaniladigan tasniflash ham muhim ahamiyat kasb etadi²⁰:

- monetar (debitorlik qarzlari, pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar);
- nomonetar (xomashyo zaxiralari, materiallar, tayyor mahsulot).

Yuqoridagi tahlillar asosida biz joriy aktivlarning mavjud tasniflarini umumlashtirib, ularni quyidagi tasnifiy belgilari bo'yicha turkumlashni taklif etamiz (1.2-jadval).

¹⁸ Ефимова О.В. Анализ оборотных активов организации // Бухгалтерский учет. - 2000. - №10. - С.47-53.

¹⁹ Артеменко В.Г., Беллендир М.В. Финансовый анализ. - М.: Изд-во «ДиС», 1997. - 128 с.

²⁰ Хендриксен Э.С., Ван Бреда М.Ф. Теория бухгалтерского учета. = Accounting Theory: Пер. с англ. / Под. ред. Я.В. Соколова. - М.: Финансы и статистика, 2000. - 574 с.

Joriy aktivlarning turkumlanishi ²¹

Tasnifiy belgilar	Joriy aktivlar elementlari
1. Elementlar bo'yicha	1.1. Xomashyo va materiallar 1.2. Yordamchi materiallar 1.3. Yoqilg'i 1.4. Idishlar 1.5. Ehtiyot qismlar 1.6. Tugallanmagan ishlab chiqarish 1.7. Kelgusi davr xarajatlari 1.8. Ombordagi tayyor mahsulot 1.9. Jo'natilgan mahsulot 1.10. Debitorlik qarzlari 1.11. Qisqa muddatli investitsiyalar 1.12. Bankdagi va kassadagi pul mablag'lari
2. Guruhlar bo'yicha	2.1. Ishlab chiqarish zaxiralari (asosiy va yordamchi materiallar, xarid qilingan yarim tayyor mahsulotlar, ehtiyot qismlar) 2.2. Tugallanmagan mahsulot xarajatlari (tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari) 2.3. Tayyor mahsulot 2.4. Pul mablag'lari va hisob-kitob schyotidagi mablag'lar (pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar, debitorlik qarzlari)
3. Operatsion jarayonda qatnashishi bo'yicha	3.1. Ishlab chiqarish sikliga xizmat qiluvchi joriy aktivlar (xomashyo zaxiralari, materiallar va yarimfabrikatlar; tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi, tayyor mahsulot zaxirasi). 3.2. Korxonaning moliyaviy sikliga xizmat qiluvchi joriy aktivlar (debitorlik qarzlari va boshqalar).
4. Buxgalteriya hisobi bo'yicha	4.1. Monetar (pul mablag'lari, debitorlik qarzlari, majburiyatli qimmatli qog'ozlar). 4.2. Nomonetar (ulushli qimmatli qog'ozlar, moddiy zaxiralar, tayyor mahsulot, oldindan to'langan xarajatlar).
5. Joriy aktivlarning joylashishi bo'yicha	5.1. Korxonada ichidagi joriy aktivlar (xomashyo va materiallar zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, ombordagi tayyor mahsulot, kelgusi davr xarajatlari, kassadagi pul mablag'lari). 5.2. Korxonadan tashqaridagi joriy aktivlar (yuklab jo'natilgan tovarlar, debitorlik qarzlari, qisqa muddatli investitsiyalar, schyotlardagi pul mablag'lari).
6. Shakllantirish manbalari bo'yicha	6.1. Yalpi joriy aktivlar (o'z kapitali hamda qarzga olingan mablag'lar hisobiga shakllantirilgan barcha joriy aktivlar).


²¹ Muallif tomonidan tavsiya etilgan.

1.2-jadvalning davomi

	<p>6.2. Sof joriy aktivlar yoki sof ishchi kapital (o'z kapitali va uzoq muddatga jalb qilingan qarzarlar hisobiga shakllantirilgan joriy aktivlar).</p> <p>6.3. O'z joriy aktivlari, korxonaning o'z (xususiy) kapitali hisobidan shakllantirilgan joriy aktivlar Agar korxonaga uzoq muddatga olingan qarzlardan foydalanmasa, xususiy va sof joriy aktivlar miqdori bir xildir.</p>
7. Foydalanish muddatlari bo'yicha	<p>7.1. Joriy aktivlarning doimiy qismi (korxonaning operatsion faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan joriy aktivlarning kamaymaydigan eng kam miqdori, mavsumiy yoki boshqa o'zgarishlarni inobatga olmaydigan joriy aktivlarning doimiy miqdori).</p> <p>7.2. Joriy aktivlarning o'zgaruvchan qismi (ishlab chiqarish hajmining mavsumiy o'zgarishi natijasida, ba'zi davrlarda tovar-moddiy zaxiralarini shakllantirish zaruriyati bilan bog'liq joriy aktivlarning o'zgarishi). Joriy aktivlarning bu turida aksariyat hollarda maksimal va o'rtacha miqdorlar farqlanadi.</p>
8. Boshqarilish darajasi bo'yicha	<p>8.1. Me'yoriy bo'lmagan joriy aktivlar (asosiy va yordamchi materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, ombordagi tayyor mahsulot).</p> <p>8.2. Me'yoriy bo'lmagan joriy aktivlar (yuklab jo'natilgan tayyor mahsulot, debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar).</p>
9. Likvidlik darajasi bo'yicha	<p>9.1. Mutlaq likvidli aktivlar (pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar).</p> <p>9.2. Tez realizatsiya qilinadigan aktivlar (tovar moddiy boyliklar, debitorlik qarzlari, tayyor mahsulot).</p> <p>9.3. Sekin realizatsiya qilinadigan aktivlar (tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari, tovar moddiy zaxiralar).</p>
10. Joriy aktivlar rentabelligi bo'yicha	<p>10.1. Yuqori rentabelli joriy aktivlar.</p> <p>10.2. O'rta rentabelli joriy aktivlar.</p> <p>10.3. Past rentabelli joriy aktivlar.</p>
11. Risk darajasi bo'yicha	<p>11.1. Minimal riskli joriy aktivlar (pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy aktivlar).</p> <p>11.2. Kichik riskli joriy aktivlar (debitorlik qarzlari (umidsiz qarzlardan tashqari), moddiy ishlab chiqarish zaxiralari (muddati o'tganlaridan tashqari), tayyor mahsulot).</p> <p>11.3. O'rtacha riskli joriy aktivlar (tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari).</p> <p>11.4. Yuqori darajadagi riskli aktivlar (umidsiz debitorlik qarzlari, foydalanilmay turib qolgan moddiy ishlab chiqarish zaxiralari, talab mavjud bo'lmagan tayyor mahsulotlar).</p>

Joriy aktivlarning me'yorlanadigan va me'yorlanmaydigan aktivlarga ajratilishi yuqorida ta'kidlaganimizdek, rejalashtirishga asoslangan iqtisodiyot sharoitida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu davrda butun mamlakat miqyosida xo'jalik yurituvchi subyektlarning (tarmoq, iqlim) aniq xususiyatlarini hisobga olgan holda aylanma (joriy) mablag'larning me'yorlarini ishlab chiqish amaliyoti keng tarqalgan.

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlarda rejalashtirish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda me'yorlanadigan va me'yorlanmaydigan joriy aktivlardan foydalanishlari mumkin. Me'yorlanadigan joriy aktivlarga minimal zaxiralarini aniq hisoblash mumkin bo'lgan, me'yorlashtirilmaydigan aktivlarga ularning minimal miqdorini aniq hisoblash imkoni bo'lmagan joriy aktivlar kiritiladi (1.2-rasm).



1.2-rasm. Joriy aktivlarni rejalashtirish va nazorat darajasi bo'yicha tasniflash²².

Me'yorlanadigan joriy aktivlar bo'yicha zaxiralar me'yori belgilanadi, masalan, tovar moddiy zaxiralar, tugallanmagan ishlab chiqarish, ombordagi yoki savdodagi tovarlar zaxirasi, kassadagi pul mablag'lari me'yori va boshqalar.

Me'yorlanmaydigan joriy aktivlar bilan miqdori odatda, chegaralanmaydigan mablag'lar, masalan, schyotlardagi pul mablag'lari,

²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sotilgan tovarlar va boshqalar. Xo'jalik yurituvchi subyektlar ushbu mablag'larni savdo kreditlash va hisoblashlar tizimi orqali boshqarishi hamda ularning hajmiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Joriy aktivlar me'yori deganda korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyatini bir maromda amalga oshirish uchun doimiy zarur bo'lgan joriy aktivlarning minimal rejalashtirilgan miqdorini tushunish lozim. Joriy aktivlar me'yori ularning umumiy miqdorining me'yori va alohida joriy aktiv me'yori tuchunchalariga ajratilishi mumkin.

Rejalashtirilayotgan davrda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari smetasi joriy aktivlarni me'yorlashtirish uchun asos hisoblanadi.

Me'yorni aniqlash maqsadida me'yorlashtiriladigan elementlarning kunlik o'rtacha sarfining pul ko'rinishidagi miqdori olinadi. Ishlab chiqarish zaxiralari bo'yicha o'rtasha sarf ishlab chiqarish xarajatlari rejasining tegishli moddalari bo'yicha, tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha yalpi va tovar mahsulotlarining tannarxi bo'yicha, tayyor mahsulotlar bo'yicha tovar mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha hisoblanadi.

Zaxira me'yori biror – bir bazaga nisbatan foiz sifatida yoki pul ifodasida belgilanishi mumkin. Tovar-moddiy zaxiralarning bu turi bo'yicha belgilangan zaxira va xarajat me'yoridan kelib chiqib, har bir joriy aktivlar zaxiralari me'yorini shakllantirish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'lar summasi aniqlanadi.

Ayrim joriy aktivlarning me'yorlariga: xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, xarid qilingan yarimfabrikatlar, ehtiyot qismlar, yoqilg'i, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyorlangan yarimfabrikatlar, kelgusi davr xarajatlari, tayyor mahsulotlar kiritilishi mumkin. Ayrim joriy aktivlar me'yorlarini jamlash orqali umumiy me'yor aniqlanadi. Shunday qilib, joriy aktivlar me'yori bu korxonaning normal xo'jalik faoliyatini minimal ta'minlash uchun rejalashtirilayotgan tovar moddiy zaxiralarning pul ko'rinishida ifodalanishidir.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. JORIY AKTIVLAR HISOBI, TAHLILI VA AUDITINING TASHKILY-USLUBIY ASOSLARI	5
1.1. Joriy aktivlarning mohiyati turkumlanishi va ularni boshqarishning asosiy yo‘nalishlari.....	5
1.2. Joriy aktivlar hisobi va iqtisodiy tahliliga tashkiliy-uslubiy yondashuvlar	22
1.3. Joriy aktivlar tahlili va auditi bo‘yicha xalqaro tajriba, undan foydalanish imkoniyatlari	37
II BOB. JORIY AKTIVLARNI HISOB VA HISOBOTDA AKS ETTIRISHNING USLUBIY JIHLTLARI	52
2.1. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va ularni baholashning xususiyatlari	52
2.2. Pul mablag‘lari va debitorlik qarzlarini hisobda aks ettirishning uslubiy jihatlari.....	67
2.3. Moliyaviy hisobotda joriy aktivlarga doir ko‘rsatkichlarni shakllantirish uslublarini takomillashtirish	86
III BOB. JORIY AKTIVLAR TAHLILINING USLUBIY JIHLTLARI VA UNI AUDITDA QO‘LLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	96
3.1. Joriy aktivlar tahlilining uslubiy jihatlarni takomillashtirish.....	96
3.2. Joriy aktivlar auditining tashkiliy uslubiy ta‘minotini takomillashtirish.....	112
3.3. Joriy aktivlar tahlili va auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	119
XULOSA	136
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	140

